

**SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ASARIDAGI
PSIXOLINGVISTIK NUTQLAR**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti 23/4-guruh 2-bosqich
talabasi **Rahmonaliyeva Dilshunos Elyorbek qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” asarida uchraydigan psixolingvistik nutq shakllari tahlil qilinadi. Muallif obrazlar psixologiyasi, ichki monologlar, nutq aktlari va kontekstual omillar orqali personajlarning ruhiy holatini ifodalashda til vositalaridan qanday foydalanilgani o'rganiladi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, ichki monolog, ruhiy holat, tafakkur, Jimjitlik, Said Ahmad.

Аннотация: В статье анализируются психолингвистические речевые модели, обнаруженные в произведении Саида Ахмада «Тишина». В ней рассматривается, как автор использует языковые средства для выражения психического состояния персонажей через психологию образов, внутренние монологи, речевые акты и контекстуальные факторы.

Ключевые слова: психолингвистика, внутренний монолог, психическое состояние, мысль, Тишина, Саид Ахмад.

Abstract: This article analyzes the psycholinguistic speech patterns found in Said Ahmad's work "Silence". It examines how the author uses language tools to express the mental state of the characters through the psychology of images, internal monologues, speech acts, and contextual factors.

Keywords: psycholinguistics, internal monologue, mental state, thought, Silence, Said Ahmad.

Psixolingvistika – bu til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lib, adabiyotshunoslikda ayniqsa, obrazlar nutqi, ichki monolog va emotsional holatlarni til orqali ifodalashni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Said Ahmadning “Jimjitlik” asari mazmunan boy va psixologik jihatdan teran bo‘lib, unda personajlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o‘zgarishlarga munosabati chuqur ifodalangan.

Asarda bosh qahramonlarning ichki monologlari orqali ularning ruhiy holati, ichki iztiroblari va jamiyatdagi voqealarga munosabati ochib beriladi. Masalan, “...Yo‘q, bu jimjitlik menga kerak emasdi. Bu sukunat ortida qandaydir beg‘amlilik emas, balki doimiy xavotir yotar edi”. Bu nutq psixik ziddiyat va ruhiy notinchlikning til vositasida qanday ifodalanishini ko‘rsatadi. Bunday nutqlar ongndagi ichki jarayonlarning tashqi verbal shaklga ko‘chirilgan ko‘rinishidir.

Dialoglar orqali obrazlarning o‘zaro munosabati va ichki holatlari ochiladi: – *Sen nimani kutyapsan? – Hech narsani...Lekin yurak bir narsa sezayotgandek...* Bu yerda psixologik fon, pauzalar, kinoya va shubhalar nutq orqali ifodalanadi. Psixolingvistik jihatdan, bu – dialogda ruhiy holatlarni til orqali kodlashdir.

Sovet davri senzura muhitida yashayotgan obrazlar ochiqchasiga gapira olmaydi. Shuning uchun ularning nutqi ishora, noaniqlik va sukut bilan boyitilgan: “*Gapim tomog‘imga kelib tiqilib qoldi. Boshqa hech kim bu sukunatni tushunmasdi*”. Bu holat Vyotiskiyning “ichki nutq” nazariyasiga mos keladi. Ya’ni, aytilmagan so‘z ham ma’no yuklaydi.

Personajlarning psixologik ziddiyatlari nutq strukturasi ham ta’sir qiladi. Ko‘pincha gaplar to‘liq emas, emotsional pauza, kinoya bilan ifodalanadi: “*Aytmoqchi bo‘ldim... lekin yuragim to‘sqinlik qildi*”. Bu ruhiy holatning til strukturasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi – ya’ni nutqqa to‘liq verbalizatsiya

berilmagan bo'lsa-da, o'quvchi uni his etadi.

Said Ahmad asarda ong oqimi metodidan ham foydalangan. Xotiralar, tushlar va tasavvurlar ichki monologlar orqali ifodalangan. Buna murakkab sintaktik tuzilmalar ishlatilgan: "...Men o'sha paytni eslayman. U yerda jimjitlik edi, lekin yuragimda to'lqin bor edi, bor edi, bor edi..." Takrorlar orqali ruhiy zo'riqish, stress va xavotir ifodalanadi.

Nutqdagi emotsiyalar ohang, leksik birliklar va grammatika orqali ifodalanadi. Jimjitlikdagi shaxslar ko'pincha o'z his tuyg'ularini yashirishga harakat qilsa-da, til buni oshkor etadi: "Sen baribir tushunmayapsan! Men jim bo'lishim – bu rozi bo'lishim emas!" Bu yerda "jim bo'lish" – murosasizlik emas, balki ichki protestdir.

Asarda ayrim personajlar psixologik tushkunlikda bo'lgani sababli ularning nutqi qisqaradi, ba'zida faqat pauzalar yoki harakatlar orqali holat ifodalanadi. Bu nutq so'nishi fenomenidir. Psixolingvistika buni nutq faoliyatining vaqtinchalik pasayishi deb talqin etadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, "Jimjitlik" asarida Said Ahmad psixolingvistik vositalarni nihoyatda nozik ishlatgan. Personajlarning ichki olami, ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi revressiv holat, senzura ta'siri, ichki monologlar va dialoglar orqali ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Said Ahmad. Jimjitlik. Toshkent, 1996;
2. Bo'ronov I. Psixolingvistika asoslari. Toshkent, 2010;
3. G'aniyeva M. Adabiy til va psixologik ifoda. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi;
4. Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton;
5. Vygotsky L.S. Thought and Language. MIT press;
6. Luria A.R. Fundamentals of Psychoneurology. Academic Press.

7. Nurmuxammedov.Y.Sh. (2024). TURLI TIZIMLI TILLAR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA GAVDALANGAN "TAQDIR" KONSEPTINING KONSEPTUAL TAHLILI. Soʻz sanʼati xalqaro jurnali, 3, 194 - 199.
8. Nurmuxammedov.Y.Sh. (2023) REPRESENTATION OF THE "FAMILIY" CONCEPT IN PHRASEOLOGICAL UNITS. International scientific - methodological electronic journal, 1(48), 43 - 52